

O'ZBEKISTONDA TEKNOLOGIK RIVOJLANISH MARAFONI

O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Innovatsiyalar va texnologiyalar transferi milliy boshqarmasida Yoshlar masalalari agentligi, Toshkent shahar hokimligi va Uzkard bilan hamkorlikda 2021-yil 15-24-noyabr kunlari texnologik taraqqiyot marafoni – TECHNOWAYS bo'lib o'tdi.

Ushbu marafon iqtidorli yoshlarning loyihalarini har tomonlama rivojlantirish va ularning texnologik bilimlarini boyitishga qaratilgan. Marafonda butun O'zbekistondan 300 dan ortiq loyiha ishtirok etdi.

Talabamiz Asadbek O'runov TECHNOWAYS marafonida g'olib chiqdi va Dubayda bo'lib o'tadigan Expo 2020 ko'rgazmasiga yo'llanma oldi. Hammamiz uni tabriklaymiz.